

## MENARINI UCHINCHI TARAFLARNING GLOBAL XULQ-ATVOR KODEKSI (MENARINI)



|                                        |                 |
|----------------------------------------|-----------------|
| Axloqiy qarash,<br>Faoliyatda halollik | MENARINI guruhi |
|----------------------------------------|-----------------|



**MENARINI**  
group

## Kirish

Menarini barcha biznes amaliyotlarini halollik va amaldagi barcha qonunlar va qoidalarga rioya qilgan holda amalga oshirish majburiyatini oladi.

Biz axloqiy xulq-atvor tamoyilini targ'ib qilamiz va o'z faoliyatimiz orqali iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorlikka erishishga ko'maklashamiz.

Biz barcha **Uchinchi tomonlarimiz**dan ushbu Uchinchi Shaxs Global Xulq-atvor kodeksida (keyingi o'rinlarda "GTP Kodeksi" deb yuritiladi) bayon etilgan tamoyillarni baham ko'rishlariga umid bildiramiz. Shuningdek, Menarini Uchinchi Tomonlardan xodimlarining va xodimlardan Menarini uchun yoki u bilan hamkorlikda mahsulot va xizmatlarni taqdim etish bilan shug'ullanadigan o'z tashkilotlaridan tashqarida halollik va ishbilarmonlik xulq-atvorning xuddi shunday darajasiga rioya qilishlarini kutib qoladi. Barcha Uchinchi Tomonlar shartnomaviy va amaldagi asosda o'zlarining subpudrat va subkontraktlari ushbu GTR Kodeksiga rioya etishlarini kafolatlashlari kerak.

**Menarini tomonidan yollanmagan, ishlab chiqaruvchilar, etkazib beruvchilar, distribyutorlar, maslahatchilar va boshqa ishbilarmon hamkorlarga o'xshagan kompaniya odatdagi ish jarayonida shartnoma tuzadigan har qanday shaxs yoki sub'ekt**

Uchinchi tomonlar amaldagi barcha qonunlar va qoidalarga rioya qilishlari va mahalliy hokimiyat organlaridan olinadigan ruxsatnomalar, sertifikatlariga o'xshagan hujjatlarni yuritishlari shart.

Ushbu GTP kodeksi uchinchi tomonlar amal qilishi kerak bo'lgan amaldagi qonunchilik asoslarining to'liq ro'yxatini o'z ichiga olmaydi, lekin unda Menarini guruhi uchun eng muhim mavzular mujassamlashganligini nazarda tutadi.

|                                     |                                             |
|-------------------------------------|---------------------------------------------|
| Axloqiy qarash, faoliyatda halollik | Uchinchi tomonlar Global Xulq-atvor Kodeksi |
|-------------------------------------|---------------------------------------------|



GLOBAL THIRD PARTIES' CODE OF CONDUCT

|                                                                                                     |           |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------|
| <b>ISHBILARMONLIK ODOBI</b>                                                                         | <b>4</b>  |
| Poraxo‘rlildan voz kechish                                                                          |           |
| Sog‘liqni saqlash sohasining mutaxassisleri yoki Davolash tashkilotlari bilan o‘zaro hamkorlik      |           |
| Targ‘ibotchilik faoliyati va Ilmiy almashinuvlar                                                    |           |
| Sovg‘a-salomlar va Mehmondorchilik                                                                  |           |
| Manfaatlar to‘qnashuvi                                                                              |           |
| Raqobat va Halol bitim                                                                              |           |
| Xalqaro savdo amaliyotlari                                                                          |           |
| Kitoblar va Ishbilarmonlik hujjatlari                                                               |           |
| Maxfiy ma‘lumotlar                                                                                  |           |
| Ma‘lumotlarni himoya qilish                                                                         |           |
| Intellectual mulk                                                                                   |           |
| Mojaroli minerallar                                                                                 |           |
| <b>MEHNAT</b>                                                                                       | <b>7</b>  |
| Inson huquqlari                                                                                     |           |
| Mehnat huquqlari / Zo‘rovonlik va kamsitishlarga nisbatan mutlaqo chidamsizlik                      |           |
| Bokakar mehnati, majburiy mehnat va Odam savdosi                                                    |           |
| Ish vaqti, Mehnatga haq to‘lash va Imtiyozlar                                                       |           |
| Birlashmalar erkinligi                                                                              |           |
| <b>SIFAT</b>                                                                                        | <b>8</b>  |
| O‘zgartishlar kiritishning nazorati                                                                 |           |
| Ijro sifati / Yetkazib berish borasidagi buyurtmani bajarish                                        |           |
| Sifatni boshqarish tizimi /Mahsulot sifati borasidagi shartlar                                      |           |
| Qadoqlash / markirovkalash                                                                          |           |
| <b>SALOMATLIK, XAVFSIZLIK VA ATROF MUHIT</b>                                                        | <b>9</b>  |
| Ishchining xavfsizligi                                                                              |           |
| Jarayonning xavfsizligi                                                                             |           |
| Atrof muhit muhofazasi va Ruxsatnomalar                                                             |           |
| Kimyoviy moddalar, Chiqindilar va tashlamalar                                                       |           |
| <b>KODEKSNI BUZISH HAQIDAGI XABAR</b> (qonun buzilishi haqida vakolatli organlarga murojaat qilish) | <b>10</b> |
| Xabardor qilish                                                                                     |           |
| Intizomiy jazo choralari                                                                            |           |

|                                     |                                             |
|-------------------------------------|---------------------------------------------|
| Axloqiy qarash, faoliyatda halollik | Uchinchi tomonlar Global Xulq-atvor Kodeksi |
|-------------------------------------|---------------------------------------------|

## **ISHBILARMONLIK ODOBI**

### **Poraxo'rlikdan voz kechish**

Menarini poraxo'rlikning har qanday ko'rinishini (xoh u ommaviy, xususiy, faol yoki passiv bo'lsin), o'zlashtirish, o'g'irlik, firibgarlik, va/yoki noqonuniy ustunliklar berishni qat'iyana ma'n etadi.

Umid qilamizki, bizning Uchinchi Tomonlar, ayniqsa Menarini uchun yoki u bilan ishlashda korruptsiya yoki poraxo'rlik deb tushunilishi mumkin bo'lgan har qanday harakatlarda (jumladan, noto'g'ri to'lovlar) ishtirok etmaydi.

Bundan tashqari, Uchinchi Tomonlar xususiy tadbirkorlik sub'ektining har qanday vakili yoki xodimiga murojaat qilib, ushbu tashkilotni Menariniga biznesni noqonuniy tarzda olish yoki saqlashda ko'maklashishga undash yoki har qanday noqonuniy afzalliklarni olish maqsadida murojaat qilib pul mablag'lari yoki qimmatli narsalarni bermasligi, taklif qilmasligi, va'da qilmasligi, qabul qilmasligi yoki talab qilmasligi kerak.

Biz faqat bizning axloqiy me'yorlarimizga sodiq bo'lganlar bilan munosabatlarni saqlab qolish uchun Uchinchi Tomonlarni tanlashda ehtiyotkorlik va jiddiy e'tibor ko'rsatishni kafolatlaymiz.

### **Sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari yoki Davolash tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik**

Biz, HCP (tibbiyot xizmatlarini yetkazib beruvchilari), HCO (Tibbiy xizmat tashkilotlari) yoki Davolash tashkilotlari bilan o'zaro hamkorlik qilishda Uchinchi tomonlardan halollikka rioya etgan holda va amaldagi qonunlar, qoidalar, ko'rsatmalar va ishlab chiqarish kodekslariga muvofiq harakat qilishlarini kutamiz.

### **Targ'botchilik faoliyati va Ilmiy almashinuvlar**

Uchinchi tomonlar barcha marketing va reklama materiallari va tadbirlarni qo'llaniladigan qonunlar, qoidalar, yo'riqnomalar va ishlab chiqarish kodekslariga muvofiq yuqori axloqiy, tibbiy va ilmiy standartlarga muvofiq amalga oshirishlari kutilmoqda.

### **Sovg'a-salomlar va mehmondorchilik**

Uchinchi tomonlar Menarinining oldindan ruxsatisiz Kompaniyamiz uchun yoki bizning nomimizdan tortiqlar qabul qilmaydilar yoki bermaydilar, mehmondo'stlik yoki boshqa har qanday shaxsiy imtiyozlarni ko'rsatmaydilar.

Oddatiy sovg'alar, bunday xushomadlar oluvchiga pora berish uchun mo'ljallangan deb hisoblash mumkin bo'lmagan holatlar bilan cheklanishi mumkin. Bundan tashqari, ular mahalliy amaliyotlar, huquqiy normalar va nizomlar bilan ruxsat etilgan ishbilarmonlik xushomadning qoidalari va standartlariga muvofiq kelishi kerak.

|                                     |                                             |
|-------------------------------------|---------------------------------------------|
| Axloqiy qarash, faoliyatda halollik | Uchinchi tomonlar Global Xulq-atvor Kodeksi |
|-------------------------------------|---------------------------------------------|

### **Manfaatlar to'qnashuvi**

Menarini manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan har qanday vaziyatni oshkor qilishga va ularni bartaraf etish yoki hal qilish maqsadida amaldagi va ehtimoliy choralarini ko'rishga to'liq sodiqdir.

Menarini manfaatlar to'qnashuvi deganda, Uchinchi tomonlarning manfaatlari to'qnashuvdan iborat bo'lganda yoki hattoki ehtimoliy bo'lsada Menarini manfaatlari bilan to'qnashuv mavjud bo'lgandek tasavvur hosil bo'ladigan har qanday holatni tushuniladi.

Agar Uchinchi tomon manfaatlar to'qnashuvi, hatto buning ehtimoli yoki Menariniga jiddiy tijoriy zarar yetkazishi yoki uning obro'siga putur yetkazishi mumkin bo'lgan nozik vaziyat haqida xabardor bo'lsa, u bu haqda o'z vaqtida e'lon qilishi kerak.

### **Raqobat va halol bitim**

Menarini o'zining korporativ qadriyatlarining bir qismi sifatida adolatli bozor asosida erkin raqobatni qo'llab-quvvatlaydi. Shu sababli, ijtimoiy mas'uliyat nuqtai nazaridan, u munosib ravishda raqobatlashishga, shuningdek, buzilmagan raqobat va bitinlarni adolatli yuritishni ta'minlashga xizmat qilishi kerak.

Menarini korporativ qadriyatlariga muvofiq, Uchinchi tomonlar, o'z navbatida, halol raqobat tamoyillariga rioya qilishlari va trestga qarshi qo'llaniladigan harakatlar doirasidagi raqobatga qarshi har qanday harakatlardan, ular alohida yoki boshqa tashkilotlar yoki shaxslar bilan birgalikda amalga oshirilgan bo'lishidan qat'i nazar voz kechishlari kerak.

### **Xalqaro savdo amaliyotlari**

Uchinchi tomon faoliyati va qoidalariga, shu jumladan import va eksportni tartibga soluvchi yoki savdo sanksiyalari va embargolariga tegishli bo'lgan barcha xalqaro savdo qonunlariga muvofiq bo'lishi kerak.

### **Kitoblar va Ishbilarmonlik hujjatlari**

Buxgalteriya hisobi tamoyillariga muvofiq, Uchinchi tomonlar kitoblar va hujjatlarni tartibli yuritishlari, shuningdek soliq va deklaratsiya masalalarini to'g'ri tushunishlari zarur.

Menarini Uchinchi tomonlar ishonchli bozor o'yinchilari bo'lishiga va bu operatsiyalarda juda samarali harakat qilishlariga ishonadi.

### **Maxfiy ma'lumotlar**

Biz, Uchinchi tomonlarimiz ehtiyotkorona harakat qilishlarini va kompaniyamizning maxfiy ma'lumotlaridan faqat maxfiylik to'g'risidagi kelishuvlarga va barcha qo'llaniladigan huquqiy normalar va nizomlarga muvofiq belgilangan ravishda foydalanishlariga umid qilib qolamiz.

|                                     |                                             |
|-------------------------------------|---------------------------------------------|
| Axloqiy qarash, faoliyatda halollik | Uchinchi tomonlar Global Xulq-atvor Kodeksi |
|-------------------------------------|---------------------------------------------|



GLOBAL THIRD PARTIES' CODE OF CONDUCT

### **Ma'lumotlarni himoya qilish**

Uchinchi tomonlar Menarini bilan ishbilarmonlik aloqalari doirasida va ular bilan bog'liq holda qayta ishlanadigan shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga majburiyatini oladilar. Xususan, Uchinchi tomonlar har doim ma'lumotlarni qayta ishlashning qonuniyligini; tegishli himoyani amalga oshirish va ma'lumotlarni himoya qilishning yuqori standartlarini ta'minlash; ma'lumotlarni qayta ishlashning butun tsiklining barcha bosqichlarida - ma'lumotlarni to'plashdan ma'lumotlarni o'chirishgacha bo'lgan barcha bosqichlarda ma'lumotlarni noto'g'ri ishlatish va ruxsatsiz kirishdan himoya qilish; ma'lumotlarning buzilishi haqida o'z vaqtida xabar berishni kafolatlashlari kerak. Uchinchi tomonlar, shuningdek, ma'lumotlarni himoya qilish qonunlariga rioya qilishni ta'minlash uchun Menarini bilan shaffoflik va sodiqlik ruhida hamkorlik qilishlari kerak.

### **Intellektual mulk**

Menarini Uchinchi shaxslarning intellektual mulk huquqlarini hurmat qiladi.

Biz, Uchinchi tomonlardan Menarinining intellektual mulk huquqlarini va boshqa barcha qo'llaniladigan qonun va qoidalarini hurmat qilishlariga umid bildiramiz.

### **Mojaroli minerallar**

Uchinchi tomonlarimiz, to'g'ri chora-tadbirlarni qo'llab va kerakli tirishqoqlik namoyon etgan holda, Menariniga yetkazib berilayotgan mahsulotlar tarkibida kelib chiqishi qurolli guruhlarini bevosita yoki bilvosita moliyalashtiradigan yoki bundan foyda oladigan mojaroli mintaqalardan bo'lgan minerallar yoki ularning qoldiqlari bo'lgan metallar yo'qligiga ishonadilar.

## **MEHNAT**

### **Inson huquqlari**

Menarini zo'rovonlik bilan muomalada bo'lishning har qanday birgalikda qatnashishdan qochgan holda BMTning Inson huquqlari to'g'risidagi Universal deklaratsiyasi doirasida o'rnatilgan tamoillarni qo'llab-quvvatlash va hurmat qilish majburiyatini oladi.

Biz Uchinchi tomonlarimizdan inson huquqlariga nisbatan xuddi shu majburiyatlarga rioya qilishlarini talab qilamiz

#### **Mehnat huquqlari / Zo'ravonlik va Kamsitishlarga mutlaqo chidamsizlik**

Umid qilamizki, bizning Uchinchi tomonlarimiz barcha qo'llaniladigan qonunchiliklarga muvofiq o'z xodimlarining sog'lig'i, erkinligi va tengligi tamoyillarini qo'llab-quvvatlagan holda qadr-qimmat tamoyillarini ilgari suradidilar.

Biz irqi, rangi, jinsi, dini, milliy kelib chiqishi, jinsiy afzalligi, yoshi, nogironligi, homiladorlik, oilaviy yoki faxriy maqomiga o'xshagan shaxsiy xislatlar, yoki qo'llaniladigan huquqiy normalar va nizomlar bilan qamrab olingan boshqa jihatlar asoslarda yaratilgan tegajoqlik, qo'rqitish yoki majburlash yoxud g'arazli tushunchalarni tan olmaymiz.

#### **Bolalar mehnati, Majburiy mehnat va Odam savdosi**

Biz Uchinchi tomonlarimizdan odam savdosi yoki zamonaviy qullik, jumladan, majburiy mehnat, qaram mehnat, majburiy mehnat yoki bolalar mehnatiga jalb etilmasliklari yoki qo'llab-quvvatlamasliklarini kutamiz.

Uchinchi tomonlar bolalar mehnatidan foydalanmasliklari va o'zlari ishlayotgan mamlakatda yoki mamlakatlarda ishlash uchun qonuniy yoshga to'lmagan xodimlarni ishga yollamasliklari shart.

#### **Ish vaqti, Ish haqi va Imtiyozlar**

Uchinchi tomonlar ish vaqti, ish haqi va qo'shimcha ish haqini o'zlari ishlayotgan mamlakat yoki mamlakatlardagi qo'llaniladigan qonunlar va qoidalarga muvofiq belgilashlari shart.

#### **Uyushish erkinligi**

Biz Uchinchi tomonlarimizdan o'zlarining yollangan xodimlarining erkin birlashish, mehnat ittifoqlariga kirish, o'zlarini namoyish etishga bo'lgan intilishlari, mehnat kengashlariga qo'shilish hamda jamoaviy muzokaralarda qatnashish borasidagi huquqlarini qo'llaniladigan mahalliy qonunlar va qoidalarga muvofiq hurmat qilishlarini kutib qolamiz.

## **SIFAT**

### **O'zgartishlar kiritish nazorati**

Biz Uchinchi tomonlarimizdan Menarini oldindan yozma ruxsatisiz sotib oladigan har qanday mahsulotlarning spetsifikatsiyasi, qismlari dizayni, ishlab chiqarish jarayoni, ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish joyi yoki ro'yxatdan o'tish maqomiga hech qanday tarzda har qanday o'zgartish kiritmasliklarini kutib qolamiz.

### **Ijro sifati / Yetkazib berish borasidagi buyurtmani bajarish**

Uchinchi tomonlar o'z talablariga muvofiq o'z vaqtida yetkazib berishni ta'minlashlari shart.

Biz Uchinchi tomonlarimizdan sifat ko'rsatkichlarini kuzatib borishlarini va ichki kamchiliklarni kamaytirish, mijozlar shikoyatlari va yetkazib berishdagi kamchiliklarda ifodalanadigan doimiy yaxshilanishini namoyon etishlarini kutib qolamiz.

Uchinchi tomonlar Menarini tomonidan bildiriladigan har qanday e'tirozlarga o'z vaqtida javob bera olish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak.

### **Sifatni boshqarish tizimi / Mahsulot sifati to'g'risidagi shartlar**

Uchinchi tomonlar sifat tizimiga ega bo'lishlari va mahsulotlarni o'z ishlab chiqarish va/yoki tarqatish mamlakatlaridagi barcha amaldagi hukumat qarorlariga muvofiq va agar qo'llash mumkin bo'lsa, belgilangan mamlakatlarda qo'llaniladigan nizomlarga muvofiq ro'yxatdan o'tkazishlari kerak.

### **Qadoqlash / Markirovkalash**

Noto'g'ri identifikatsiya qilish ehtimolini oldini olish va har tomonlama monitoringni ta'minlash uchun markirovkalash to'g'risidagi tegishli ma'lumotlar bilan belgilangan taribda identifikatsiyalangan bo'lishi shart.

## **SALOMATLIK, XAVFSIZLIK VA ATROF-MUHIT**

### **Ishchining xavfsizligi**

Menarini ish joyini xavfsizligini ta'minlash, xav-xatardab xabardorligini oshirish va mas'uliyati xulq-atvor tamoilini rivojlantirgan holda oldini olish va sog'liqni hamda ishchilarning xavfsizligini himoya qilish madaniyatini mustahkamlash majburuyatini oladi. Bunga barcha ishchilarni doimiy tarzda xabardor etib borish, o'qitish va ta'lim berish orqali erishiladi.

Biz, Uchinchi ushbu majburiyatlarga rioya etishlari va xodimlarning qadrigimmati to'liq kafolatlashni va salomatlik va xavfsizlikka nisbatan bo'lgan barcha qo'llaniladigan huquqiy normalarga muvofiq bo'lishlarini kutib qolamiz.

### **Jarayon xavfsizligi**

Menarini har tomonlama samaradorlikni, jumladan favqulodda holatlar bo'yicha davriy o'quvlarni doimiy monitoring qilish bilan birga favqulodda holatlar munosabati bilan zaxiralar va taomillarni ta'minlaydi. Biz Uchinchi tomonlardan ehtimoliy va ta'sirlarnining oqibatlarini oldini olish uchun ehtimoliy favqulodda vaziyatlarni aniqlaydilari, baholaydilari va uddasidan chiqishlarini kutib qolamiz.

### **Atrof-muhitni muhofaza qilish va ruxsatnomalar**

Menarini barcha qo'llaniladigan xalqaro va mahalliy huquqiy normalar va nizomlarga muvofiq atrof-muhitni muhofaza qilish va ishbilarmonlik amaliyotlarni barqarorlik tamoili bo'yicha kerakli tarzda olib borish muhimligini chin yurakdan tan oladi.

Uchinchi Tomonlardan tabiiy zaxiralarni kerakli tarzda saqlash va barcha atrof-muhitni asrashga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy normalar va nizomlarga rioya qilishlari talab etiladi. Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq barcha sanksiyalar, ruxsatnomalar va litsenziyalar tegishli tarzda olinishi kerak.

### **Kimyoviy moddalar, Chiqindilar va Tashlanmalar**

Menarini o'z biznesining barcha jabhalarini, ularning ta'sirini kamaytirish uchun atrof-muhitni asrashni hisobga olgan holda boshqaradi.

Uchinchi tomonlar chiqindilarning paydo bo'lishini juda qisqartirishlari, ularni qayta ishlashini targ'ib qilishlari, atrof muhitga va inson salomatligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan oqova suvlarni, atmosfera yog'ingarchiliklari yoki boshqa har qandan jihatlarni kerakli ravishda boshqarishlari shart.

Uchinchi tomonlar, shuningdek, o'z faoliyatida zararli moddalardan foydalanishni imkon qadar kamaytirishlari kerak.

## KODEKSNI BUZISH HAQIDA XABAR (qonun buzilishi to'g'risida vakolatli organlarga murojaat qilish)

### Xabardor qilish

Menarini Uchinchi tomonlarni, hatto anonim tarzda va javob choralaridan qo'rqmay, ushbu Kodeksdagi qonunlar, qoidalar va tamoillarning har qanday, hatto mumkin bo'lgan buzilishi haqida xabar berishga chaqiradi.

Quyida samarali chora ko'rishni rag'batlantirish uchun qonun buzilishi holatlari yuzasidan vakolatli organlarga maxsus murojaatlar uchun havolalar keltirilgan:

Veb-sayt: <https://menarinigroup.ethicspoint.com>

Global muvofiqlik pochta qutisi:

[globalcompliance@menarini.com](mailto:globalcompliance@menarini.com)

Ma'lumotlarni buzish muammolari va boshqa bandlar

Shaxsiy ma'lumotlar bilan: [dpo@menarini.com](mailto:dpo@menarini.com)

Xabar qilingan tashvishlar haqidagi barcha ma'lumotlar tegishli tarzda qayta ishlanadi, diqqat bilan ko'rib chiqiladi va qat'iy maxfiylik sharoitida o'rganiladi. Tegishli hollarda, siyosatdagi har qanday mumkin bo'lgan uzilishlarni bartaraf etish va kelajakda buzilishlarning oldini olish uchun intizomiy choralar va tuzatish choralari ko'riladi.

Ushbu Kodeksning ayrim buzilishlari Kompaniyadan keyingi o'rganishlar yoki jinoiy javobgarlikka tortish uchun tegishli davlat yoki nazorat organlariga murojaat qilishni talab qilishi mumkin.

Umid qilamizki, Uchinchi tomonlar o'z xodimlariga qonunbuzarliklar to'g'risida vijdonan xabar berganliklari uchun siqilishlarga giriftor bo'lmasliklari haqida xabardor qiladilar

### Intizomiy jazo choralari

Menarini Uchinchi tomonlardan ushbu Kodeksga rioya qilishlari talab qilingani uchun o'zlarini axloqiy jihatdan to'g'ri tutishini kutadi. Amaldagi qonunlar va qoidalarining har qanday buzilishi yoki ushbu Kodeksning har qanday buzilishi, unig darajasiga va boshqa alohida qoidalarga muvofiq shartnomada nazarda tutilgan tegishli jazo choralarini qo'llashga olib keladi.

|                                     |                                             |
|-------------------------------------|---------------------------------------------|
| Axloqiy qarash, faoliyatda halollik | Uchinchi tomonlar Global Xulq-atvor Kodeksi |
|-------------------------------------|---------------------------------------------|



GLOBAL THIRD PARTIES' CODE OF CONDUCT

|                                               |                                   |
|-----------------------------------------------|-----------------------------------|
| <b>Axloqiy qarash, Faoliyatdagi yaxlitlik</b> | <b>MENARINI (MENARINI) guruhi</b> |
|-----------------------------------------------|-----------------------------------|

